

MODA DIZAYNINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Shahizoda Shukurova*Milliy libos va san'at fakulteti
dizayn (milliy kostyum) yo'nalishi**3-kurs talabasi**Ilmiy rahbar:***Dilafrō'z Radjapova**

Annotatsiya: *Ushbu maqolada moda dizayni sohasining tarixiy rivojlanishi, zamonaviy tendensiyalari hamda milliy va jahon modasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik tahlil qilingan. Shuningdek, moda dizaynining nafaqat estetik, balki ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega ekanligi ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqot davomida moda dizaynining globallashuv sharoitida milliy o'ziga xoslikni saqlashdagi o'rni, yoshlar ongiga ko'rsatadigan psixologik ta'siri va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari ko'rsatib berilgan. Maqola moda dizaynining nazariy hamda amaliy jihatlarini chuqurroq o'rganishga qaratilgan bo'lib, ushbu soha bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar uchun muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.*

Kalit so'zlar: *moda dizayni, zamonaviy moda, milliy libos, globalizatsiya, estetik qarashlar, yoshlar madaniyati, moda tendensiyalari.*

Moda dizayni bugungi kunda nafaqat kundalik hayotiy ehtiyojlarni qondirish vositasi, balki jamiyatning estetik qarashlari, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi muhim fenomen sifatida namoyon bo'lmoqda. Moda insoniyat tarixining barcha davrlarida mavjud bo'lgan. Dastlab kiyim insonni sovuq, issiq va tashqi muhitdan himoya qilish vositasi sifatida shakllangan bo'lsa-da, asta-sekin u ijtimoiy mavqe va madaniy tafakkurni ifodalovchi muhim ramzga aylangan. Qadimgi Sharq mamlakatlarida liboslarning nafaqat amaliy, balki diniy va marosimiy vazifalari ham bo'lgan. G'arbda esa o'rta asrlardan boshlab moda jamiyatning yuqori tabaqalari tomonidan ijtimoiy mavqeni ko'rsatish vositasi sifatida rivojlandi.

XXI asr globallashuv va texnologik taraqqiyot davri bo'lib, insoniyat hayotining deyarli barcha jabhalarida yangilanish va o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Bunday jarayonlar san'at, madaniyat va, albatta, moda sohasida ham o'z aksini ko'rsatdi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Parij va Milan modaning yirik markazlariga aylandi. Mashhur dizaynerlar – Sharl Vort, Koko Shanel, Kristian Dior kabi shaxslar butun dunyo modasiga katta ta'sir ko'rsatdilar. Shu davrdan boshlab moda dizayni mustaqil ijodiy soha sifatida shakllana boshladi.

Bugungi kunda moda global sanoatdir va aksariyat yirik mamlakatlarda moda sanoati mavjud. Yetti mamlakat ushbu sohada xalqaro obro'ga ega: AQSh, Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya va Belgiya. Moda sanoatining „katta

to'rtlik" poytaxtlari Nyu-York, Parij, Milan va Londondir. O'zbek xalqining tarixdagi kiyim-kechaklari bilan bog'liq ma'lumotlarni arxeologik qazilmalar jarayonida topilgan qadimiy katta devoriy suratlar, turli buyumlarga tushirilgan tasvirlar, o'rta asrlardagi kitob miniatyuralari beradi. O'rta asrlarga oid miniatyuralar o'zbek kiyimlarining o'ziga xos uslubi, ya'ni tipi shakllanganligi va ular keyingi davrgacha saqlanganligini ko'rsatuvchi noyob namunalardir. O'zbek libosi deganda ko'z oldimizga o'ziga xosligimizni namoyon etadigan atlas va adraslarimiz keladi. Lekin bugungi Globalizatsiya jarayonida jahon modasi milliy liboslarimiz bilan uyg'unlashib bormoqda. O'zbek milliy liboslari – atlas, adras, shoyi matolaridan tikilgan kiyimlar, naqshlar bilan bezatilgan zamonaviy liboslar xorijiy podiumlarda ham o'z o'rnini topmoqda. Milliy modani zamonaviy dizayn bilan uyg'unlashtirish ikki maqsadga xizmat qiladi: birinchidan, madaniy merosni asrab-avaylash va targ'ib qilish, ikkinchidan, uni jahon modasi maydoniga olib chiqishdir.

Millatimizni boshqa xalqlardan ajratib turadigan jihatlar emas, balki bizni birlashtiruvchi omillar milliy ma'naviyatning negizini tashkil etadi. Chunki ma'naviyatimizdagi eng umuminsoniy g'oyalar ham milliy qiyofa kasb etgan holda namoyon bo'ladi. Ular boshqa xalqlarning ma'naviyat unsurlaridan nusxa ko'chirish shaklida emas, balki o'ziga xos tarixiy, madaniy va estetik xususiyatlarimiz asosida yuzaga keladi. Shuning uchun biz urf-odat va marosimlarimizni baholashda ularni alohida bir hodisa sifatida emas, balki butun insoniyat manfaatlari, shaxs erkinligi, Vatan va millat taraqqiyoti bilan uyg'unlikda ko'rib chiqmog'imiz lozim.

Go'zallik insoniyat ma'naviyatining ajralmas qismi, estetik timsolidir. Shu bois moda hamisha jamiyat bilan birga harakat qiladi va uning ehtiyojlarini ifodalaydi. Ayollar tarixan chiroyli ko'rinishga intilib kelganlar, bunda kiyim muhim vosita sifatida xizmat qilgan. Bugungi kunda esa moda yanada keng imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda: turli uslublar, yangi dizaynlar, milliy va zamonaviy unsurlar uyg'unligida yaratilgan liboslar insonlarga o'z shaxsiyati va didini erkin namoyon etish imkonini bermoqda. Zamonaviy moda – bu nafaqat estetik go'zallik, balki madaniyat, qadriyat va ma'naviyatning uyg'un ifodasidir.

Moda tendensiyalari mavsumiy, joriy yilga xos va uslubiy xilma-xillikka ega bo'lib, qulay kiyimlardan tortib yorqin naqshlargacha bo'lgan dizaynlarni o'z ichiga oladi. Masalan, qishda issiq va qulay kiyimlar, yozda esa yorqin hamda naqshlilar urf bo'lishi mumkin. Zamonaviy moda tendensiyalari bugungi kunda globallashuv, texnologik taraqqiyot va madaniy almashinuv ta'sirida shakllanmoqda. Moda nafaqat kiyinish madaniyati, balki jamiyatning estetik qarashlari, ijtimoiy kayfiyati hamda ma'naviy qadriyatlarini ifodalovchi kuchli omilga aylangan. Xususan quyidagi asosiy tendensiyalarni kuzatish mumkin:

1. Minimalizm – soddalik, qulaylik va funksionallikka asoslangan yo'nalish. Unda ortiqcha bezaklardan voz kechilib, sof shakl va tabiiy ranglarga e'tibor qaratiladi.

2. Barqaror moda –ekologik toza matolar, qayta ishlangan xomashyolardan foydalanish, atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan ishlab chiqarish jarayonlarini joriy etish. Bu yo‘nalish butun dunyoda tobora dolzarb bo‘lib bormoqda.

3. Fast fashion – qisqa muddat ichida yaratiladigan, arzon va ommaviy kiyimlar ishlab chiqarish yo‘nalishi. Bu tendensiya iste’molchilar uchun qulay bo‘lsa-da, ekologik muammolarni kuchaytirishi bilan ham xarakterlanadi.

4. Gender neytral moda – erkak va ayol kiyimlari o‘rtasidagi an’anaviy chegaralarni yo‘qotish, universallikka intilish.

5. Texnologik moda – 3D modellash, raqamli podiumlar, virtual kiyimlar, sun’iy intellekt yordamida dizayn yaratish kabi innovatsion yondashuvlarga asoslanadi.

6. Milliy va zamonaviy uyg‘unlik – turli xalqlarning milliy libos elementlarini zamonaviy dizayn bilan uyg‘unlashtirish. O‘zbek atlas, adras va milliy naqshlar asosida tikilgan liboslarning xalqaro podiumlarda namoyish etilishi bunga yorqin misoldir. Umuman olganda, zamonaviy moda insonlarga faqat estetik zavq berish bilan cheklanmay, balki ularning dunyoqarashi, qadriyatlari va hayotiy pozitsiyasini ham ifodalab bermoqda.

Yoshlar orasida moda nafaqat kiyinish madaniyatini, balki o‘zini ifoda etish, jamiyatda o‘z o‘rnini belgilash vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababdan moda dizayni psixologiya, sotsiologiya va madaniyatshunoslik bilan ham bog‘liq.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, moda dizayni – bu oddiy kiyim ishlab chiqarish jarayoni emas, balki jamiyatning estetik qarashlari, ijtimoiy qadriyatlari va madaniy rivojlanish darajasini ifodalovchi muhim sohadir.

Bugungi tendensiyalar – minimalizm, barqaror moda, texnologik yondashuvlar hamda milliy va jahon madaniyati uyg‘unligi – modaning ijtimoiy ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Ayniqsa, milliy liboslar asosida yaratilgan zamonaviy dizaynlar xalqning o‘zligini anglash, madaniy merosni asrab-avaylash va uni jahon miqyosida targ‘ib qilishga xizmat qilmoqda.

Shunday qilib, moda dizayni kelajakda ham inson hayotida estetik zavq berish, shaxsiylikni ifodalash, milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish va ekologik barqarorlikni ta‘minlashda muhim omil bo‘lib qoladi. Uning rivojlanishi jamiyatning umumiy ma‘naviy va madaniy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rahmatullayeva U. S. o‘zbek xalqining kiyinish madaniyati: an’anaviylik va zamonaviylik (falsafiy-madaniy) yondashuv. Nomzodlik dissertatsiyasi. Toshkent, 2010.

2. “O‘zbekiston zamonaviy moda dizaynida milliy o‘ziga xoslikni anglash jarayoni” Azizaxon Sagdiganiyeva Toshkent-2022
3. “O‘zbekiston va Fransiya: Moda olami va ta’lim integratsiyasi” maqola Xalida Kamilova
4. <https://uz.wikipedia.org>